

**SO‘FI OLLOYORNING “SOBAT UL-OJIZIN” ASARIDA SHARIAT
ILMINING ZARURLIGI MASALASI*****Xolmurodova Odinaxon Dilmurod qizi****FARDU Filologiya va tillarni o‘qitish:**O‘zbek tili 2390-guruh talabasi*

Annotatsiya: “Sabotul ojizin” asari XVII–XVIII asrlarda yashagan So‘fi Ollohyor ijodiga mansub bo‘lib, musulmonning e‘tiqodi, amaliy ibodatlar va ma‘naviy kamolotini sodda, xalqchil tilda yoritadi. Asarda shariat ilmlari uch qismga — aqida, amal va haqiqatga ajratilib, ularning uzviy bog‘liqligi va qalb bilan uyg‘unligi ta‘kidlanadi. Muallif e‘tiqodning mustahkamligi, shariatga rioya va qalb pokligini haqiqiy buzuruk insonning asosiy mezoni sifatida ko‘rsatadi. Asar nafaqat tasavvufiy, balki fihiy va axloqiy ta‘limiy qadriyatlarni ham o‘zida mujassam etadi.

Kalit so‘zlar: So‘fi Olloyor, Sabotul ojizin, shariat, aqida, amal, taqvo, tasavvuf, diniy tafakkur, ma‘naviy kamolot, ibodat, axloq, fiqh, ruhiy maqom, tarbiyaviy ta‘lim.

So‘fi Olloyor (XVII–XVIII asrlar) Markaziy Osiyo tasavvufiy va diniy tafakkurining yorqin namoyandalaridan biridir. Uning “Sabotul ojizin” asari musulmon kishisining e‘tiqodi, amaliy ibodatlar va ma‘naviy kamoloti haqida sodda, xalqchil tilda yozilgan muhim manba hisoblanadi. Asarda shariat ilmlarining mohiyati, aqida masalalari va amal-taqvo uyg‘unligi nazm va hikmatlar orqali tushuntiriladi. So‘fi Olloyor diniy ilmlarni an‘anaviy tarzda uch qismga ajratib ko‘rsatadi: aqida, shariat va haqiqat. Uning fikricha, bu uchlik bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, avval e‘tiqod, so‘ng amal va natijada inson qalbida ma‘naviy hol paydo bo‘ladi.

Asarda shariat ilmlariga doir masalalar bayon etilar ekan, muallif avvalo aqidaga katta e‘tibor qaratadi. U aqidani dinning tomiri deb hisoblaydi. Chunki e‘tiqod to‘g‘ri bo‘lmasa, boshqa barcha ibodatlar va diniy ilmlar ham mukammal natija bermaydi. Muallif bu fikrini juda sodda, ammo chuqur tashbeh orqali ifoda qiladi:

“Diyonat behidur ilmi aqoid,
Tomursiz shoxa su bermak na foyid.
Bu mahkam shajarning shohi – a‘mal,
libosi bo‘ldi taqvo, mevasi – hol.”

Ushbu misralarda, diyonatning, ya‘ni dinning tomiri — aqoid ilmi hisoblanadi. Barcha musulmonlar aqoid ilmidan xabardor bo‘lishi shart, chunki e‘tiqod mustahkam bo‘lmasa, boshqa barcha ilm va amallar samara bermaydi. So‘fi Ollohyor ham shuni

ta'kidlaydi: biror ilmni o'rganishdan oldin aqoid ilmini bilish zarur. Agar inson avvalo aqoidni o'rganmay, boshqa ilmlarga sho'ng'isa, u ilmning foydasini ko'ra olmaydi.

Muallif bu haqiqatni juda sodda, ammo hayotiy tashbeh orqali tushuntiradi: tomiri yo'q shoxga suv quyish nima foyda beradi? Shu bois tomir — ya'ni aqida — dastlab mustahkam bo'lishi lozim. Faqat undan keyin amal qilinsa, shu tomirga tushirilgan suv kabi, insonning diniy amallari ham chiroyli, barakali va meva beruvchi bo'ladi.

So'fi Olloyor shariatni daraxtga o'xshatadi: uning tomiri — aqida, shoxlari — amal, barglari — taqvo. Suv bilan sug'orilgan daraxt albatta meva beradi, inson ham shundaydir. Hosil bo'layotgan meva esa — "hol", ya'ni Alloh tomonidan beriladigan maqom va qilgan amallarimiz uchun beriladigan savobdir. Shu bilan u o'quvchiga shariat ilmi faqatgina amaliy bilim emas, balki ruhiy tarbiya, qalb pokligi va hayotiy baraka ekanini tushuntiradi.

Keyingin baytlarda So'fi Olloyor shariat hukmlaridan chiqmaslik kerakligini ta'kidlaydi:

“O'shal buzuruki sohib himmatidur,
Rasulullohning hos ummatidur.
Payg'ambar qilg'onidin qilmag'ay tosh,
Agar chandaki bolsa ko'z bila qosh.
Shariat hukmidin tashqi riyozat,
Emas toat, qabohatdur, qabohat.”

Bu yerda So'fi Olloyor shariat yo'lidan chekinmaslik, tashqi ko'rinishdagi riyozat yoki ibodatning shariat chegarasidan chiqmasligini hayotiy misol bilan tushuntiradi. Agar inson o'zini buzuruk deb bilsa ham, u faqat ko'z bilan qosh orasidagi masofa doirasida, ya'ni shariat chegarasida qolishi kerak. Shariatdan tashqarida qilinadigan har qanday ish — ibodat emas, aksincha qabohat, ya'ni noto'g'ri va zararli amal hisoblanadi.

Haqiqiy buzuruk inson har bir ishini o'z e'tiqodi bilan uyg'unlashtiradi, qalb va amal bir-birini mustahkamlaydi, shariatdan chiqmay, harakatlari orqali payg'ambar amallarini yodga oladi. Shu bilan u nafaqat o'zini tarbiyalaydi, balki Rasulullohga munosib ummat sifatida jamiyatda o'rni va mas'uliyatini namoyon etadi. Shariatga sodiq bo'lgan, qalbi pok va amali barakali insonning har bir ishida Allohning rahmati, savob va ruhiy maqomning samarasini ko'rish mumkin.

So‘fi Olloyorning bu baytlari bizga shariat ilmining faqat tashqi amal va riyozatdan iborat emasligini, balki haqiqiy himmat va buzuruklik qalb, e‘tiqod va amalning uyg‘unligida namoyon bo‘lishini o‘rgatadi. U shariatni hayotiy tamoyil sifatida talqin qiladi va musulmonning haqiqiy buzuruk inson sifatida shakllanishi uchun e‘tiqodga sodiqlik, shariatga rioya va qalb pokligini asosiy mezon sifatida belgilaydi.

Asarda ibodatlar — namoz, ro‘za, zakot va haj kabi farz amallar izohlanadi, halol va harom chegaralari, musulmonning kundalik muomala va odobi haqidagi ko‘rsatmalar beriladi. So‘fi Olloyor ilmning maqsadi amal bilan tasdiqlanishini, amal esa taqvo bilan go‘zallashishini uqtiradi. Uning fikricha, haqiqiy taqvo — tashqi ibodatlarining ichki mazmunini anglash, qalbni gunohdan saqlash, nafsni tarbiyalash demakdir. Endi insonning qalbida paydo bo‘ladigan “hol” — Allohning marhamati bilan beriladigan ruhiy maqom, yaqinlik, ibodatning samarasidir.

“Sabotul ojizin” asarining tarbiyaviy kuchi shundaki, unda nazariy masalalar faqat bayon qilinmaydi, balki misollar orqali amaliy hayotga tatbiq etiladi. Asar xalq tilida, sodda vaznda yozilgani sababli keng omma orasida mashhur bo‘lgan. So‘fi Olloyor shariat ilmlarini odob-axloq, halol rizq, muomala madaniyati, insonning jamiyatdagi mas‘uliyati bilan bog‘lab, diniy bilimlarni keng ijtimoiy maydonga chiqaradi. Shu jihatdan “Sabotul ojizin” faqat tasavvufiy meros emas, balki fihiy va axloqiy masalalarni o‘zida jamlagan ta‘limiy asar sifatida ham qadrlanadi.

So‘fi Olloyor “Sabotul ojizin” asarida musulmonning e‘tiqod, amaliy ibodat va qalb pokligini bir butun sifatida talqin etadi. Asar shariat ilmlarining hayotiy ahamiyatini, uning qay darajada muhimligini, e‘tiqod va amal uyg‘unligini sodda va tushunarli tarzda o‘rgatadi. Shu bilan u o‘quvchiga haqiqiy buzuruk inson bo‘lish uchun e‘tiqodga sodiqlik, shariatga rioya va qalb pokligi zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. So‘fi Olloyor. Risolai aziza "Sabot ul-ojizin sharhi" (Tuzuvchi: B.Hasan) - Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashr, 2000.
2. . G‘afurov N. O‘zbek adabiyoti va tasavvuf. – Toshkent: Sharq, 1999.
3. Yo‘ldoshev M., Karimov A. Tasavvuf va adabiyot. – Toshkent: Fan, 2010